

ODA JANRINING AN'ANAVIY TURLARI

Djangabaeva Hurliman Chingisbaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus pedagogika instituti tayanch doktoranti

djangabaeva9803@icloud.com

Annotatsiya. Maqolada dunyo adabiyotidagi muhim lirik janrlardan biri oda janri, uning kelib chiqish ildizlari, turlari va janrning boshqa dolzarb muammolari, odaning shakliy va mazmuniy ahamiyati, va tadqiq etilish masalalari kabi mavzular haqida so'z etiladi.

Kalit so'zlar. Oda janri, antik davr oda an'analari, saltanatli odalar, ishqiy odalar, tarbiyaviy odalar, uyg'onish davri odalari.

EDEBIYAT BİLİMİNDE ODA CİNSİ PROBLEMİ

Djangabaeva Hurliman Chingisbaevna

Ajiniyaz adına Nukus pedagoji enstitüsü tayan doktorant

Özet. Makale, dünya edebiyatındaki önemli lirik türlerden biri olan oda türü, kökleri, türleri ve türün diğer güncel sorunları, odanın biçimsel ve anlamsal önemi ve araştırma konuları hakkında konuşmaktadır.

Anahtar kelimeler. Oda türü, antik oda gelenekleri, saltanatlı odalar, aşk odaları, eğitici odalar, Rönesans dönemi odaları.

ПРОБЛЕМА ЖАНРА ОДА В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Джангабаева Хурлиман Чингисбаевна

Докторант Нукусского педагогического
института имени Ажинияза

Аннотация. В статье рассматриваются такие темы, как жанр оды, один из важнейших лирических жанров мировой литературы, его происхождение, виды и другие актуальные проблемы жанра, формальное и содержательное значение оды и вопросы ее исследования.

Ключевые слова. Жанр оды, традиции оды античного периода, царственные оды, любовные оды, воспитательные оды, оды эпохи Возрождения.

THE PROBLEM OF THE ODE GENRE IN LITERARY STUDIES

Djangabaeva Hurliman Chingisbaevna

basic doctoral student of the Ajiniyaz Nukus pedagogical institute

Abstract. The article discusses the ode genre, one of the important lyrical genres in world literature, its origins, types, and other pressing issues of the genre, the formal and semantic significance of the ode, and issues of its research.

Keywords. Ode genre, antique ode traditions, royal odes, love odes, educational odes, Renaissance period odes.

Lirik asarlarni talqin etganda uni ham nazariy asoslar bilan, ham an'anaviy va hissiy qoidalarga amal qilib talqin qilamiz. She'riyatdagi bir qancha an'ana va qoidalar, tarixiy-ishtimoiy omillar asosida yuzaga kelgan qadimiy janrlardan biri bu odadir. "Oda (yunon. ode – maqtoʻv) – lirik sheriyaat janri. Antik davrda "oda" so'zi dastavval atama sifatida qaralmagan, keyinchalik

asosan strofalarda yozilgan, saltanatli, oliy va tarbiyaviy mazmundagi lirik xor qo'shig'i (ayniqsa, Pindar qo'shiqlari) manosini olgan" [1. 684]. Oda G'arb adabiyotidagi eng mashhur janrlardan biri bo'lib, uning kelib chiqishi antik adabiyot bilan bog'lanadi. Odaning janr sifatida takomillashishi G'arb adabiyotining uyg'onish davri va adabiyotshunosligining rivojlanishi bilan bog'liq. Uyg'onish davri va barokko (16-17-asrlar) davrlarida oda so'zi asosan antik yunon va rim adabiyoti namunalari (Pindar, Goratsiy) asosida yozilgan bo'lib, strofalarda tuzilgan va saltanatli ruhtagi shariyatga qarata qo'llanilgan (P.Ronsar, G.Kyabrera, Dj.Drayden). Keyinchalik oda klassitsizm davrida o'zining eng baland cho'qqisiga chiqti va eng asosiy janrga aylandi. Klassitsizm shariyatida (17-18-asrlar) oda – oliy uslubning yetakchi janri bo'lib, o'sha davrdagi qonuniy mavzularni (hudoni, vatanni, hayotiy donishmandlikni madh etuvchi v.b), uslublarni (sokin yoki tez boshlanish, chekinishlar, lirik betartiblikga yo'l qo'yish) va boshqa turlarni o'z ichiga olgan. Shuningdek odalarni janrlilik xususiyati, uslubi va manosiga qarab yuqori ko'tarinki ruhtagi va saltanatli odalar bo'lsa, Pindar odalari, agar tarbiyaviy bo'lsa, unda Goratsiy odalari, ishqiy mazmundagi odalarni esa Anakreon odalari sifati qarash va turlarga ajratish mavjud.

Oda janrini o'rganishda, uni nazariy jihatdan talqin qilishda muammolar, qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Odaning shakllanish davri bir qancha sabablarni keltirib chiqaradi. Odani o'rganishdagi asosiy muammo asosan bu janrning o'ta nazariy rivojlanganligi va barqarorligi. Oda barqaror adabiy shakl sifatida o'z tabiatiga ko'ra bir xil bo'lishga intilgan, bu janrning shakllanishi, mavjudligi va rivojlanishining ichki qonunlarini qayta tiklash, uning dinamikasini ko'rish muhimdir. Odaning barcha turlari uchun umumiy ulug'vorlik va yuqori notada madh etish qonuni amal qilsa da, ular tasvirlash obyektlari va mazmuniga qarab bir nechta turlarga bo'lingan. She'riyatda odaning an'anaviy turlaridan asosan Pindar, Goratsiy va Anakreon odalari mashhurdir. Odaning asosiy mavzulari ushbu shoirlarning ijodiga bog'liq ravishda kelib chiqqan deya baholanadi. "Miloddan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon shoiri Pindarning epinikiy deb ataladigan odasi gimnastika musobaqalarida g'olib chiqqan shaxs sharafiga maqto'v qo'shig'i bo'lib, uning vazifasi g'alabaga bo'lgan irodani uyg'otish va rag'batlantirishdan iborat edi. Pindar she'riyatida voqealar mifologik obrazlar bilan metonimik assotsiatsiyalar yordamida bayon qilingan. Pindar kuylanayotgan voqeani dunyoning mifologik tizimiga kiritgan, bu esa asar syujetining bir tekis bayon etilishiga putur yetkazgan. Pindar she'riyatida assotsiativ turdagi keskin o'zgarishlar, bandlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikning zaiflashuvi, obrazlarning kerakli ketma-ketligini qurish uchun tartibsiz sintaksis asarni idrok etishni biroz qiyinlashtirdi, ammo sirli muhitni, muallifning qandaydir oliy bilimga ega ekanligini qo'shdi va bashoratchi shoir obrazini yaratdi" [2. 66-68 – 3. 641-643].

Pindar odalari g'alabani yuqori notada tasvirlash xususiyati bilan keyinchalik jangovar odalarning vujudga kelishiga ham zamin yaratti. Pindar odalari Evropa klassitsizmi davrida dastavval ingliz she'riyatiga kirib keldi va Ben Jonson, Endryu Marvel, Jon Milton, Abraham Kauli kabi shoirlar aynan Pindar uslubidagi odalar yozishgan. Rus klassitsizmi davrida ham Pindar odalari tasirida bir qancha shoirlar ijod qilgan. Lekin klassitsizm davridagi Pindar uslubidagi odalarning ko'pchiligi, xususan rus klassitsizmi davridagi Pindar odalarda antik adabiyot odalariga xos "ko'tariluvchi yamb, maxsus qofiya, bandlarning oxirgi bo'sh she'r bilan aloqasi, qat'iy qasidali band mavjud emas; shuningdek, mumtoz uch qismli kompozitsiya topilmagan, odada o'ziga xos va odada ochib berilgan predmetlar, she'rlarning xulosasida xulosa-umumlashma yoki pand-nasihat uchramagan; antik davrdan keyingi Pindar uslubi odalari haqiqiy Pindar odalariga mos emasligini O.Mandelstam rus mumtoz she'riyati va kumush davr shariyati misolida tastiqlaydi" [3. 16-18].

Goratsiy pindarlashtirishdan voz kechdi va Rim zaminida zoliya shoirlarining melik lirikasini qayta tiklashga intildi, ammo pindar odasining tashqi shaklini saqlab qoldi. Goratsiyning odasi odatda biron-bir real shaxsga qaratilgan bo'lib, juda xilma-xil mavzularni qamrab oladi, u yuksak uslubdan yoki ifoda vositalarining keskinligidan yiroq; uning odalarida dunyoviy ohang, ba'zan yengil kinoya aralashmasi hukmronlik qiladi. Goratsiy odalari Uyg'onish davri Evropa adabiyotida juda mashhur bo'lgan va Evropa lirikasining shakllanishida katta rol o'ynagan. G'arbda Goratsiy an'anasini davom ettirib muaffaqiyatli ijod qilgan shoir Maykl Dreyton bo'ldi. Klassitsizm

poetikasi adabiyotshunoslari oda janri nazariyasini bir vaqtning o'zida Pindar va Goratsiy she'riyati materiallari asosida qurishda qiyinchiliklarga duch kelishdi, chunki oda atamasi antik grammatikachilar tomonidan Goratsiy lirikasiga nisbatan qo'llanilgan. Nikola Bualo o'zining "She'riyat san'ati" (1674) va "Oda haqida mulohazalar" (1694) nazariy risolalarida oda nazariyasining qoidalaridan birini ilgari suradi. Bualo Pindar odalarida topgan xususiyati lirik tartibsizlik bo'lib, u mavzuni yoritishda to'g'ridan-to'g'ri mantiqiy izchillikning yo'qligidan iborat edi. Yani, lirik syujet davomiyligi ketma-ketlikka asoslanmagan edi, syujet qurish mantig'idan ko'ra tinglovchiga emotsional ta'sir ko'rsatish katta rol o'ynagan. Yu.N.Tinyanov o'zining "Oda notqlik janri sifatida" maqolasida ta'kidlaganidek, "ularning (notqlik va oda) janr sifatidagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, lirik syujet tuzilishi izchil mantiqiy qurilish va bir-biriga bog'langan so'z massalarining assotsiativ harakati o'rtasidagi murosa natijasi edi" [4. 230]. Demak, ko'rinib turganidek odalar boshqa lirik turlarga solishtirganda oquvchiga (tinglovchiga) nutqiy poetikasi bilan tasir etishi lozim va bunday go'zal uslub Evropa klassitsizmi davrida asosiy lirik janrga aylangani bejiz emas.

Pindar an'analari G'arb klassitsizmi davrida qirol va ritsarlarning shonli yurishlari, janglari va tantanali obrazini tasvirlashda yetakchilik etgan uslub edi. Goratsiy uslubi esa ko'picha alkeeva strofasiga asoslangan bo'lib, u to'rt qatorli sherlardan tuzilgan va birinchi qatori to'qqiz, ikkinchi qatori o'n, uchinchi qatori o'n bir, oxirgi qatori esa yakun sifati berilgan [5. 16]. Oda an'alaridan yana bir mashhur turi bu Anakreon odasi edi. Anakreon odalari asosan ishqiy mavzularni yuqori notada tasvirlaydi. "Anakreonlik she'riyat – lirik she'riyatning bir turi bo'lib, unda hayot quvonchi, shodlik, hissiy lazzatlar tarannum etiladi. Bu janr eramizdan avvalgi VI-V asrlarda yashagan qadimgi yunon lirik shoiri Anakreon nomi bilan atalgan. Anakreonning asarlari bizgacha faqat parchalar shaklida yetib kelgan. Qadimgi yunon lirikasining Anakreonga taqlidchilar tomonidan yozilgan "Anakreon" to'plami vujudga keldi. Bu to'plam Anakreonning asl she'rlariga qaraganda kuchliroq bo'lib, Anakreonning rivojlanishiga hissa qo'shdi. Yevropada, ayniqsa, Fransiyada" [5. 31]. Anakreon odalari qadimda lira asbobi yordamida ijro etilgan, uning musiqiy ohangga mos xususiyati va odalarning aksariyati ishq, go'zallik, sharob kabi mavzularga bag'ishlanganligi ham sabab bo'lgan. Goratsiy va Pindardan farqli Anakreon uslubi soddaroq va quvnoqroq edi, lekin Anakreon va Pindar faqat yuqori qatlam vakillari: saroy amaldorlari, zodagonlar, ritsarlar v.b. tasvirlagan edi. Chunki Anakreonning tasviriy obyekti zodagonlarning go'zal hayoti, muhabbati va sharob ila hayotdan zavq olish onlariga qaratilgan, Pindarning asosiy obyekti sport musobaqalari va bunday musobaqalar faqat saroyda, hukmdor buyrug'i bilan va zodagonlarning olimpiyadasiga qaratilgan edi. Goratsiy odalari kengroq auditoriyaga ega bo'lib, oddiy xalq hayoti va falsafiy o'ylarga ham etibor qaratilgan. Uning odalarida Rimning yuqori va o'rta tabaqalariga murojaat qilingan bo'lsa da, hayotiy va falsafiy mulohazalari oddiy xalq uchun ham tushunarli va qiziqarli edi. Anakreon uslubi XVII asr Franciya va XVIII asr Rossiyada rivojlangan. M. Lomonosov, A. Kantemir, G. Derjavin, K. Batyushkovlar ham rus jamiyatidagi dvoryanlar hayotiga bag'ishlangan bir qancha Anakreon an'anasidagi yaxshi odalar yozgan.

Xulosa qilib aytish joizki lirikaning eng dolzarb masalalaridan biri oda janri va uning qo'llanilish an'analari bugungi adabiyotshunoslikning ham asosiy muammolaridan biridir. Biz maqolamizda atab o'tgan qadimiy uslublar bugungi kun G'arb adabiyotida ham qo'llaniladi. XIX-XX asr G'arb adabiyotidagi mumtoz va har xil mavzudagi odalarni tahlil qilishda ularning qaysi antik an'analarga asoslangani va qaysi turdagi odaning printsiplarini boshchilikka olganini aniqlash ahamiyatli, bu esa odaning antik davrdan bugunga qadar mumtoz hisoblangan Goratsiy, Pindar va Anakreon uslublarini o'rganish natijasida amalga oshadi. Shunday ekan, bu uch an'ana jamiiki G'arb odasini o'rganishning asosiy tamoillari bo'lib qola beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Литературная энциклопедия. Терминов и понятия. – Москва: НПК «Интелвак». 2001, С. 684.

2. Чистякова Н.А., Вулих Н.В. История античной литературы. –Ленинград: Ленинградский государственный университет.1963, С. 66-68.
3. Тронский И.М. Пиндар // Литературная энциклопедия: в 11 т. Т 8. – Москва: Советская энциклопедия. 1934, С. 16-18.
4. Реинбах О.Е. «Нашедший подкову» О.Мандельштама: история произведения. Автореферат на соискание ученой степени кандидата филологических наук., – Иваново. 2018, С. 16-18.
5. Квятковский А. Поэтический словарь. 1966, – Москва: Советская энциклопедия. С. 16-31.